

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHOMIROV AZIZBEK ABDURASHIDOVICH

**IQTISODIYOTGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA
QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI ROLINI OSHIRISH**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Shomirov Azizbek Abdurashidovich

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog‘ozlar bozori rolini oshirish..... 5

Шомиров Азизбек Абдурашидович

Повышение роли рынка ценных бумаг в привлечении инвестиций в экономику..... 41

Shomirov Azizbek Abdurashidovich

Increasing the role of the securities market in attracting investment into the economy..... 81

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 86

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHOMIROV AZIZBEK ABDURASHIDOVICH

**IQTISODIYOTGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA
QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI ROLINI OSHIRISH**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Iqt650 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyoneb» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Omonov Akrom Abdinazarovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Haydarov Nizamiddin Xamrayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent shahri filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «29» 08 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1719 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34. kutubxona@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «14» 08 kuni tarqatildi.
(2025 yil «14» 08 dagi 50 raqamli reestr bayonnomasi).




T.Z. Teshabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


J.X. Ataniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


I.N. Qo'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon hamjamiyatida kuzatilayotgan nobarqaror geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy shart-sharoitlar yirik kapital egalari bo'lgan turli investorlarni o'ta sinchkovlik bilan harakat qilishga undamoqda. Xalqaro amaliyot ko'rsatmoqdaki, bunday vaziyatlarda qimmatli qog'ozlar bozori orqali ishonchli moliyaviy instrumentlarga investitsiyalarni yo'naltirish maqbul yechim sifatida namoyon bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) orqali asosan portfel investitsiyalar oqimi kirib keladi va har qanday mamlakat iqtisodiyotida uning yetakchi o'rnini belgilab beradi. Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund) ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yil boshiga kelib jahonda portfel investitsiya aktivlari (Portfolio Investment Assets) umumiy qiymati 80,3 trln. AQSh dollaridan oshgan bo'lsa, aynan o'zlashtirilgan shu turdagi investitsiyalar hajmida (Portfolio Investment Liabilities) AQSh 30 foizlik ulushga egalik qiladi, Birlashgan Qirollik, Lyuksemburg va Kayman orollari kabi davlatlar har biri 6 foizlik, Fransiya, Irlandiya 5 foizdan, Germaniya va Yaponiya kabilar 4 foizdan, Kanada hamda Niderlandiya 3 foizdan, qolgan dunyo mamlakatlari esa umumiy 28 foizlik ulushga egalik qilmoqda"¹. Bundan tashqari Securities Industry and Financial Markets Association (SIFMA) tashkilotining yillik hisobotlariga ko'ra, "2024-yil boshida global aksiyalar bozori kapitalizatsiyasi 115 trln. AQSh dollarini, global daromadi belgilangan qimmatli qog'ozlar bozori umumiy qiymati esa 140 trln. AQSh dollarini tashkil etgan"². Ushbu raqamlardan ma'lum bo'lmoqdaki, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda QQB rolini mustahkamlash, milliy fond bozoriga turli toifadagi investorlarni jalb qilish orqali uning jozibadorligini oshirish hamda erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning YaIMdagi ulushini ko'paytirish kabi masalalar sohada ijobiy o'zgarishlarga erishishda dolzarb sanaladi.

Jahonda xalqaro darajada qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini yanada rivojlantirish, fond bozorlari orqali investitsiyalar oqimini ko'paytirish hamda iqtisodiyotda QQBning rolini oshirish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy izlanishlarda qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, uning asosiy infratuzilmaviy instituti hisoblangan fond birjalari faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda QQBning rolini oshirish, QQB orqali investitsiyalar oqimini jadallashtirish, QQB rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sir qilayotgan omillarni aniqlash hamda tahlil qilish, fond bozorida yangi instrumentlarni joriy qilish orqali investitsiyalarni diversifikatsiyalash, xorijiy fond bozorlariga integratsiyani jadallashtirish, sohani tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish kabi malalalar tadqiq etilgan. Biroq, iqtisodiyoti endi rivojlanayotgan mamlakatlarda QQB va uning infratuzilmaviy institutlari faoliyatining barqaror emasligi, fond bozorida investorlarga taklif qilinadigan moliyaviy instrumentlar sonining kamligi yoki

¹ Xalqaro valyuta fondi rasmiy sayti <https://data.imf.org/?sk=b981b4e3-4e58-467e-9b90-9de0c3367363> Twelfth Meeting of the IMF Committee on Balance of Payments Statistics маълумотлари Table 12, 13.

² Securities Industry and Financial Markets Association <https://www.sifma.org/resources/general/2024-capital-markets-outlook/> маълумотлари.

mavjudlaridan foydalanilmayotganligi kabilar iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda QQB rolini oshirish yuzasidan kompleks tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda QQBni har tomonlama rivojlantirish orqali uning iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishdagi rolini mustahkamlash borasidagi ishlar davom ettirilmoqda. Ammo, bugungi kunda QQB orqali investitsiyalarni jalb qilishda, ayniqsa, davlat aksiya paketlarini xususiylashtirish uchun ommaviy savdolarga chiqarish bilan bog'liq jarayonlar yuzasidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarning kechikayotganligi, mamlakat YaIMda erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar ulushining 1 foizga ham yetmaganligi, QQBda umumiy aksiyadorlik kapitali tarkibida davlat ulushining yuqori ekanligi, fond bozorida yangi turdagi moliyaviy instrumentlarni joriy qilish amaliyotining kechikayotganligi kabi yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Umuman olganda bugungi kunda milliy QQBning iqtisodiyotdagi rolini oshirish borasida aniq maqsadlar belgilab olingan, jumladan, "O'zbekiston-2030" strategiyasi 49-maqsadida erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan"³. Aynan iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda QQB rolini oshirishga oid muammolarni aniqlash, ularning yechimi bilan bog'liq taklif-tavsiyalar ishlab chiqish hamda mamlakatimiz fond bozorida xorijiy investorlar kapitalini jalb qilishga salbiy ta'sir etayotgan omillarni aniq tahlil etib, zarur choralarni ko'rish muhim ahamiyat kasb etgani holda, ushbu tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston–2030” strategiyasi to'g'risida”gi, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston–2030» strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi, 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2021-yil 13-apreldagi PQ-5073-son "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida”gi, 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-son "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2023-yil 2-sentabrdagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari, shuningdek, iqtisodiyotga QQB orqali investitsiyalar jalb qilishga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

³ <https://lex.uz/ru/docs/6600413> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son farmoni, www.lex.uz.

vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish va uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirish borasida jahonning bir nechta nufuzli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlari, xalqaro moliya institutlari, yetakchi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim tashkilotlari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (The United Nations Commission on International Trade Law (UNCITRAL)), Jahon banki (World Bank), Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund (IMF)), Jahon fond birjalari federatsiyasi (World Federation of Exchanges), Xalqaro moliya korporatsiyasi (The International Finance Corporation (IFC)), Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar xalqaro tashkiloti (International Organization of Securities Commissions (IOSCO)), Qimmatli qog'ozlar sanoati va moliya bozorilari assotsiatsiyasi (Securities Industry and Financial Markets Association (SIFMA)), Stenford universiteti (Stanford University (USA) kabi tashkilotlarda ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Qimmatli qog'ozlar bozori, uning infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishda fond bozorlarining rolini oshirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar asosida ko'plab ilmiy va amaliy natijalar olingan: qimmatli qog'ozlar savdosi va investitsiyalar bo'yicha nizolarni ko'rib chiqish yuzasidan xalqaro darajada amal qiladigan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi); dunyo mamlakatlari kesimida portfel investitsiyalar harakati bo'yicha analitik ma'lumotlarni e'lon qilib borishning samarali tizimi yo'lga qo'yilgan (Xalqaro valyuta fondi); QQB orqali investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari bo'yicha xulosalar shakllantirilib, taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan (Xalqaro moliya korporatsiyasi); kapital bozorida investorlar harakati va ularning kapitalini optimal moliyaviy instrumentlarga yo'naltirish yuzasidan tavsiyalar shakllantirilgan (Qimmatli qog'ozlar sanoati va moliya bozorilari assotsiatsiyasi, AQSh); fond bozorida investitsiya portfelini muntazam diversifikatsiyasini ta'minlash, portfel va unga oid risklarni baholash asosida invetorlarni potensial yo'qotishlardan himoyalash yuzasidan tavsiyalar shakllantirilgan (Stenford universiteti, AQSh).

Bugungi kunda xalqaro amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini rivojlantirish, fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish va uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirish bo'yicha bir qator ilmiy

⁴Tadqiqot ishi mavzusi yuzasidan o'rganilgan izlanishlar sharhi manbalari quyidagilar: <https://uncitral.un.org>, www.worldbank.org, <https://www.imf.org>, <https://www.world-exchanges.org/>, <https://www.ifc.org>, <https://www.iosco.org>, <https://www.sifma.org/>, <https://www.stanford.edu/>.

izlanishlar olib borilmoqda, xususan, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, portfel investitsiyalarning iqtisodiyotdagi oʻrni va rolini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, zamonaviy sharoitlarga mos yangi moliyaviy instrumentlarni joriy qilish orqali investitsiyalarni jalb qilish, investorlar va hukumat oʻrtasida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan nizolarni bartaraf etish, fond bozorida investorlarda tushkunlik holatini oldini olish, QQBda raqamli texnologiyalarni qoʻllash orqali inson omilini kamaytirish yoʻli bilan korrupsion holatlarni oldini olish, iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish yuzasidan davlatga tegishli aksiya paketlarini xususiylashtirish orqali investitsiyalarni jalb qilish.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qogʻozlar bozori rolini oshirishning nazariy-metodologik asoslari va fond bozorining tashkiliy-huquqiy asoslari, milliy QQBda investorlar faoliyatini takomillashtirish borasida xorijlik iqtisodchi olimlar koʻplab ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, xorijiy yetakchi iqtisodchilardan K. Marks, A. Smit, D. Rikardo, T. Veblen, D. Kaneman, A. Tverski, K. Makkonell, Benjamin Graham, Harry Markowitz, William Sharpe, Eugene Fama, Robert Shiller, Fischer Black and Myron Scholes, Frank J. Fabozzi, Frederick S. Mishkin, Kent Matthews, Massimo Giuliadori, D. Hirshleifer, S. Teoh, L.A. Bebhuk, A. Cohen, A. Ferrell, J. C. Coffee, P. Gomber, J. Koch, M. Siering, G. Friede, T. Busch, A. Bassen, B. Li, J. Yang, Y. Wang, A. Naik, E. Varijalar oʻz ilmiy izlanishlarida qimmatli qogʻozlar bozorining amal qilish mexanizmi, undagi mavjud instrumentlar xususiyatlari, fond bozorining rivojlanish evolyutsiyasi, QQB orqali investitsiyalar jalb qilish mexanizmi kabi masalalarni tadqiq qilishgan⁵.

⁵ К. Маркс. Капитал в одном томе / — Москва : Издательство АСТ: ОГИЗ, 2021. — 960 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М.: Эксмо, 2016.; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Избранное / Д. Рикардо; [пер. с англ.; предисловие. П.Н. Ключкина]. — М.: Эксмо, 2008. — 960 с. — (Антология экономической мысли.); Веблен, Т. (1899). Теория праздного класса, Коммонс, Дж. Р. (1934). Институциональная экономика, Митчелл, У. К. (1913). Деловой цикл; Канеман, Д., & Тверски, А. (1979). Теория перспектив: анализ принятия решений в условиях риска, Талер, Р. (2015). Подталкивание: улучшение решений о здоровье, благосостоянии и счастье.; Макконелл К. Р. Экономикс: в 2 т. Т. I. М., 1992.; Бенджамин Грэм, Джейсон Цвейг. Разумный инвестор = The Intelligent Investor: The Definitive Book On Value Investing, Revised Edition. — М.: «Вильямс», 2006. — 672 с. — ISBN 5-8459-0910-4.; Markowitz, H. (1952). Portfolio Selection. The Journal of Finance, 7(1), 77-91.; Sharpe, W. F. (1964). Capital asset prices: A theory of market equilibrium under conditions of risk. The Journal of Finance, 19(3), 425-442.; Fama, E. F. (1970). Efficient capital markets: A review of theory and empirical work. The Journal of Finance, 25(2), 383-417.; Shiller, R. J. (2000). Irrational Exuberance. Princeton University Press.; Black, F., & Scholes, M. (1973). The Pricing of Options and Corporate Liabilities. Journal of Political Economy, 81(3), 637-654.; Fabozzi, Frank J. Bond Markets, Analysis and Strategies. Prentice Hall, 2000. ; Frederick S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliadori. The economics of money, banking and financial markets. UK. Pearson, 2013. P.3.; Frederic S. Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. USA. Prentice Hall, 2012. P.2.; Hirshleifer, D., & Teoh, S. H. (2003). Limited attention, information disclosure, and financial reporting. Journal of Accounting and Economics, 36(1-3), 337-386.; Bebhuk, L. A., Cohen, A., & Ferrell, A. (2009). What matters in corporate governance? Review of Financial Studies, 22(2), 783-827.; Coffee, J. C. (2007). Law and the market: The impact of enforcement. University of Pennsylvania Law Review, 156(2), 227-298.; Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital finance and fintech: current research and future research directions. Journal of Business Economics, 87(5), 537-580.; Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. Journal of Sustainable Finance & Investment, 5(4), 210-233.; Li, B., Yang, J., Wang, Y., & Niu, J. (2022). Research on the Relationship Between Macroeconomic Indicators and Stock Market Value. Proceedings of Business and Economic Studies, 5(5), 158-163. <https://doi.org/10.26689/pbes.v5i5.4243>; Naik, A. (2024). Impact of macroeconomic factors on the indian stock market. Indian Scientific Journal Of Research In Engineering And Management, 08(05), 1-5. <https://doi.org/10.55041/ijrsrem32511>; Varija, E. al. B. (2023). Analysis of Stock Portfolio with Global Economic

Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish orqali uning iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish, fond bozori xususiyatlarini tadqiq qilish yuzasidan MDH mamlakatlari yetakchi iqtisodchilari ham ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, Я. Миркин, Б. Рубцов, А. Буренин, Т. Бердникова, Г. Федотов, В. Белых, В. Галанова, Е. Стародубцева, В. Галанов, Р. Садыхов kabilar qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining nazariy asoslari, amaliy masalalari va rivojlanish tendensiyalari yuzasidan tadqiqotlar o'tkazgan⁶.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Vaxabov, N. Jumayev, I. Butikov, Sh. Shoxa'zamiy, M. Xamidulin, B. Toshmurodova, S. Elmirzayev, F. Xamidova, V. Kotov, E. Nosirov kabilar qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini takomillashtirish va fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan⁷.

Tadqiqot ishi mavzusi doirasida, ya'ni qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi rolini oshirish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari bo'yicha J. Karimqulov, qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha F. Muxamedov hamda so'nggi yillarda mamlakatimizda QQB infratuzilmasini rivojlantirish va milliy fond bozori faoliyatini takomillashtirish yuzasidan U. Xoliqov, X. Xudoyqulov, Sh. Sultonov, A. Ibodullayev, A. Karimov, A. Xo'jamurodov, B. Boyev, N. Abdullayeva kabi iqtisodchilar ilmiy tadqiqotlar o'tkazib kerakli taklif va tavsiyalar shakllantirgan⁸.

Factors using Dynamic Data Modelling. International Journal on Recent and Innovation Trends in Computing and Communication. <https://doi.org/10.17762/ijritcc.v11i10.8677>.

⁶Я.М. Миркин Российский рынок ценных бумаг: влияние фундаментальных факторов, приоритеты и механизм развития: дис. ... докт. эконом. наук. М., 2003.; Мировые рынки ценных бумаг : научное издание / Б. Б. Рубцов. - М. : Экзамен, 2002. - 448 с. - ISBN 5-94692-070-7 : 1035.00 тг, Рубцов Б.Б. Рынок ценных бумаг: Учебник. Москва: КноРус, 2023, URL: <https://book.ru/book/949341>; Буренин А. Н. Рынок ценных бумаг и производных финансовых инструментов: Учебное пособие — М.: 1 Федеративная Книготорговая Компания, 1998. —352 с.; 2008.; Бердникова Т.Б. Оценка ценных бумаг: Учебное пособие. – М.:ИНФРА – М, 2006. -144 с.; Федотов Г.А. Ценные бумаги: понятие, виды, правовой режим. – М.: Юридическая литература, 2006.; Белых В.С. Оценка стоимости ценных бумаг. – М.: Финансы и статистика.; В.А.Галанова, А.И.Басова Рынок ценных бумаг. МОСКВА «ФИНАНСЫ И СТАТИСТИКА» 2006.; Е. Б. Стародубцева Рынок ценных бумаг. Москва ИД «ФОРУМ» - ИНФРА-М 2006.; 2011; Галанов В.А. (2007). Рынок ценных бумаг. Учебник. Инфра-М. ISBN 978-5-16-002869-9.; Р.О. Садыхов основные тенденции развития рынка ценных бумаг Азербайджана. Социально-Экономическое Развитие Государств Евразии. 2011 г.

⁷Vaxabov A.V., Jumaev N.X., Hoshimov E.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari. – T.: Akademnashr, 2009. -141 b.; Бутиков, И. (2023). Проблемы привлечения финансовых ресурсов акционерных обществ с государственной долей в уставном фонде за счет выпуска акций. [http://conference.tsue.uz/index.php/article/Шохаъзамий Ш.Ш. Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане, Ав-рат дисс...доктора. экон. наук.-Ташкент, БФА, 2011.](http://conference.tsue.uz/index.php/article/Шохаъзамий Ш.Ш. Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане, Ав-рат дисс...доктора. экон. наук.-Ташкент, БФА, 2011.;); Хамидулин М.Б Развитие финансового механизма корпоративного управления, Автореферат дисс...доктора. экон. наук.-Ташкент, БФА, 2009.; Elmirzaev S.E. va boshqalar. Moliya bozori. Darslik /– T.: “Iqtisod Moliya”, 2019. – 324 b.; Хамидова Ф.А. Анализ и пути привлечения портфельных инвестиций в приватизированные предприятия: автореферат дисс... к.э.н. - Ташкент, 2009.-19 с.; Котов В.А. Организация рынка ценных бумаг. – Т.: Молия, 2007. - 23 с.; Nasirov E.I. Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari rolini oshirish masalalari: i.f.n. ...diss. avtoreferati. – Toshkent, 2006. - 21 b.

⁸ Karimqulov J.I. O'zbekiston iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish yo'llari: i.f.n. ...diss. avtoreferati. – Toshkent, 2012. - 22 b.; Muxamedov F.T. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish yo'nalishlari, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati – Toshkent, 2019. – 28 b.; Xoliqov U.R. O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2017. - 24 b.; Xudoyqulov X.X. Fond bozori aktivlarini baholash mexanizmini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2018. - 24 b.; Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2020. – 24.; Ibodullaev A.A. O'zbekistonda uyushgan

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining ITM-3. "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining nazariy-metodologik asoslari: nazariy qarashlar va yondashuvlarni, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozorining ahamiyati va zaruriyati hamda tadrijiy rivojlanishini tadqiq qilish;

iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozorining segmentatsiyasi va funksiyalarini yoritib berish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha jahon amaliyotining o'ziga xos xususiyatlarini, O'zbekiston iqtisodiyotiga qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalar jalb qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yoritish;

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning tasniflanishi hamda ularning tavsifini shakllantirish;

qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb qilingan investitsiyalarning xorij va O'zbekiston amaliyotlarini tahlil qilish, iqtisodiyotga QQB orqali xorijiy investitsiyalar jalb qilishga ta'sir etuvchi omillarni baholash;

mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini rivojlantirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash;

xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilish;

O'zbekiston iqtisodiyotiga qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalar jalb qilish istiqbollari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston milliy qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, umumlashtirish, guruhlash, kuzatish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, induksiya va deduksiya hamda statistik tahlil, ekonometrik modellash kabi usullardan foydalanildi.

qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish ("Toshkent" respublika fond birjasi misolida): Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2021. – 60 b.; Karimov A.I. Aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilish orqali qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T.: 2021. – 60 b.; Xo'jamurodov A.J. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2019. – 26.; Boyev B. J. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T.: 2021. – 56 b.; Abdullaeva N.A. Sug'urta kompaniyalarining fond bozorida faoliyatini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati – Toshkent, 2022.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xususiylashtiriladigan davlat mulklari, shu jumladan davlat aksiya paketlari bo'yicha investorlar tomonidan to'lanadigan shartnoma summasi savdo sanasidagi belgilangan BHMning 20 ming baravaridan oshgan taqdirda to'lovlarni 3 yilgacha bo'lgan muddatda bo'lib to'lashga imkoniyat berish taklif etilgan;

tijorat banklarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida xalqaro moliyaviy institutlaridan jalb qilingan kredit mablag'larini bank aksiyalariga konvertatsiya qilish asosida banklar kapitallashuvida xorijiy strategik investorlar ishtirokini ta'minlash asoslangan;

mahalliy qimmatli qog'ozlar bozorida yangi moliyaviy instrumentlar orqali investitsiyalar diversifikatsiyasini ta'minlashda fond birjasi "Stock market" aksiyalar bozorining mavjud listing toifalariga kiritilgan emitentlarga muddati 1 yildan ko'p bo'lmagan birja obligatsiyalarini chiqarish imkoniyatini berish taklif etilgan;

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlariga O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar kabi foyda solig'ining 5 foiz stavkasini qo'llash muddatini uzaytirish taklif etilgan;

qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalar jalb qilishda SPO amaliyotidan foydalanish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalining 4 foizdan kam bo'lmagan miqdordagi aksiya paketini joylashtirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

jahon amaliyoti va O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori evolyutsiyasi hamda turli iqtisodiy maktablarning QQB bo'yicha yondashuvlari tadqiq qilingan va "qimmatli qog'ozlar bozori" iqtisodiy kategoriyasining talqini yuzasidan turli yondashuvlarning qiyosiy tahlili keltirilgan hamda mualliflik ta'rifi shakllantirilgan;

xorijiy mamlakatlarda QQB orqali portfel investitsiyalar oqimi tahlil qilingan va "Baffet indikatori" bo'yicha ko'rsatkichlari hisoblangan;

O'zbekistonda milliy QQB orqali investitsiyalar jalb qilish amaliyoti tahlil qilingan va mamlakat iqtisodiyotida uning salmog'i yoritib berilgan hamda davlatga tegishli aksiya paketlarini xususiylashtirish zaruriyati asoslangan;

qimmatli qog'ozlar bozori orqali portfel xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ta'siri baholangan;

milliy QQBda fiskal instrumentlar orqali investorlarni rag'batlantirish dolzarbligi asoslangan va mahalliy fond birjasida "Privatizatsiya (Xususiylashtirish)" listing toifasini joriy qilish orqali davlat aksiya paketlarini sotuvga chiqarishni soddalashtirish hamda jadallashtirish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ushbu dissertatsiya ishida qo'llanilgan usul va yondashuvlar, nazariy hamda tahliliy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingan bo'lib, asoslantirilgan xulosalar, zarur taklif va tavsiyalar shakllantirilib, amaliyotga joriy etilganligi, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Jahon fond birjalari federatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentli, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi, "Toshkent" Respublika fond birjasi kabi tashkilotlarning ma'lumotlariga mosligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu dissertatsiya ishi natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish va uning iqtisodiyotdagi rolini oshirishga oid nazariy-metodologik va milliy fond bozori faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda QQB rolini oshirish va davlat ulushi hisoblangan aksiya paketlarini xususiylashtirish masalalariga doir chora-tadbirlar, rivojlantirish dasturlari, konsepsiya hamda strategiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

xususiylashtiriladigan davlat mulklari, shu jumladan davlat aksiya paketlari bo'yicha investorlar tomonidan to'lanadigan shartnoma summasi savdo sanasidagi belgilangan BHMning 20 ming baravaridan oshgan taqdirda to'lovlarni 3 yilgacha bo'lgan muddatda bo'lib to'lashga imkoniyat berish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'RQ-907-son qonunining 31-moddasi 3-bandida o'z aksini topgan (Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 11-martdagi 03/08-1-12/1048-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2024-yil davomida qiymati 20 ming BHMdan ortiq bo'lgan 103 ta davlat mulklari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali hamda 13 ta davlat aksiya paketlari "Toshkent" Respublika fond birjasida ommaviy savdolarga chiqarilishiga erishilgan;

tijorat banklarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida xalqaro moliyaviy institutlardan jalb qilingan kredit mablag'larini bank aksiyalariga konvertatsiya qilish asosida banklar kapitallashuvida xorijiy strategik investorlar ishtirokini ta'minlash bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-iyuldagi "O'zsanoatqurilishbank" aksiyadorlik tijorat bankining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-253-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 18-apreldagi 04-72-2-00417-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2023-yil yakuniga kelib "O'zsanoatqurilishbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan Osiyo taraqqiyot banki bilan bank oddiy aksiyalariga konvertatsiya qilinuvchi 50 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyasi jalb qilinishi to'g'risida bitim imzolanishiga erishilgan;

mahalliy qimmatli qog'ozlar bozorida yangi moliyaviy instrumentlar orqali investitsiyalar diversifikatsiyasini ta'minlashda fond birjasi "Stock market" aksiyalar bozorining mavjud listing toifalariga kiritilgan emitentlarga muddati 1 yildan ko'p bo'lmagan birja obligatsiyalarini chiqarish imkoniyatini taqdim qilish yuzasidan taklifidan "Toshkent" Respublika fond birjasi Kuzatuv kengashining 2023-yil 12-maydagi 6-sonli Bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Toshkent" Respublika fond birjasi aksiyadorlik jamiyatida birja obligatsiyalarini ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va muomalaga kiritish Tartibi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo

vazirligining 2025-yil 18-apreldagi 04-72-2-00417-son ma'lumotnomasi). Natijada 2025-yil boshiga kelib "Toshkent" RFB "Stock market" aksiyalar bozorining "Premium", "Standart" va "Tranzit" listing toifalariga kiritilgan 65 ta emitent birja obligatsiyalarini emissiya qilib, soddalashtirilgan tartibda faqatgina fond birjasi ro'yxatidan o'tgan holda qisqa muddat ichida investitsiyalarni jalb etish imkoniyatiga ega bo'lgan;

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlariga O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar kabi foyda solig'ining 5 foiz stavkasini qo'llash muddatini uzaytirish yuzasidan taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 18-apreldagi 04-72-2-00417-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2028-yil 31-dekabrqa qadar O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida yuridik shaxs maqomidagi xorijiy investorlarga mahalliy yuridik shaxs toifasidagi investorlar bilan teng sharoit va imtiyozlarning yaratilishiga hamda mamlakat fond bozorining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga erishilgan hamda 2024-yil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining norezidenti hisoblangan 171 nafar yuridik shaxslar aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlariga 5 foiz stavkada soliq to'lab, o'zlarining ixtiyorida 751,8 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'ni tejab qolgan;

qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalar jalb qilishda SPO amaliyotidan foydalanish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalining 4 foizdan kam bo'lmagan miqdordagi aksiya paketini joylashtirish taklifi Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasining 2024-yil 13-sentabrdagi 84-son bayonida o'z aksini topgan (Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 11-martdagi 03/08-1-12/1048-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Xalqchil IPO" dasturi doirasida "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" AJ ustav kapitalidagi 4,44 foizga teng davlat aksiya paketini xususiylashtirish maqsadida mahalliy fond birjasida ikkilamchi ommaviy joylashtirish (SPO)ga chiqarilishiga va 42,9 mlrd. so'm miqdoridagi investitsiyalar jalb qilinishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi natijalari 11 ta xalqaro va 10 ta respublika miqyosidan tashkil etilgan ilmiy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan jurnallarda 13 ta, xususan, xorijiy nufuzli jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, shu bilan birgalikda, xalqaro va respublika miqyosida tashkil etilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda 21 ta ma'ruza va tezislarni nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ushbu tadqiqot ishi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 248 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon etilgan, dissertasiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, maqsadi va vazifalari hamda obyekti, predmeti va usullariga tavsif berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining nazariy asoslari va evolyutsiyasi”** deb nomlangan birinchi bobida qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining nazariy-metodologik asoslari: nazariy qarashlar va yondashuvlar, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozorining ahamiyati va zaruriyati hamda tadrijiy rivojlanishi va iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozorining segmentatsiyasi va funksiyalari tadqiq etilgan.

Garchi “qimmatli qog'ozlar” atamasi nisbatan yangi atama bo'lsa-da, bu tushunchaning o'zi qadimgi sivilizatsiyalardan beri mavjud bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, Qadimgi Rimda qarz tilxatlari mavjud bo'lgan, ularni zamonaviy obligatsiyalarning prototipi deb hisoblash mumkin. O'rta asrlarda Yevropada savdogarlar veksellardan - kelajakda ma'lum miqdorda pul to'lash majburiyatini tasdiqlovchi hujjatlardan foydalanganlar.

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyun sanasida qabul qilingan yangi tahrirdagi “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi O'RQ-387-sonli Qonunining 3-moddasida “Qimmatli qog'ozlar – hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi⁹” deb izoh berilgan.

Iqtisodiy bilimlar tarixida U.Sharp, G.Aleksandr hamda Dj.Beyli kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari aynan kapital egalari bo'lgan investorlar uchun haqiqiy tub burilish bo'lganligi sir emas. Ushbu tadqiqotchilarga ko'ra “Qimmatli qog'ozlar – ma'lum sharoitlarda qonun bilan mustahkamlangan, kelajakda ma'lum bir naf (foyda, daromad) keltiradigan guvohnomalardir” deya ta'rif berilgan¹⁰. Fikrimizcha, albatta ushbu ta'rif o'ta umumiy tarzda berilgan bo'lib, qaysidir ma'noda iqtisodchi bo'lmagan foydalanuvchilar uchun ham sodda ko'rinadi, ammo ushbu iqtisodiy kategoriyaning to'liq ifodalanishini bildirmaydi.

Rossiyalik yana bir iqtisodchi G. Fedotov o'z ilmiy izlanishlarida qimmatli qog'ozlarning huquqiy tabiati, ularning turlari va muomaladagi xususiyatlarini o'rganib chiqqan. U qimmatli qog'ozlarni mulkiy huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar

⁹ O'zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasi.

¹⁰ Шарп У., Александр Г., Бэйли Дж. Инвестиции. - Пер. с англ. – М.: ИНФРА М, 1999. - XII, 1028 с.

deb ta'riflagan, ularni amalga oshirish yoki topshirish faqat ushbu hujjatlar taqdim etilganda mumkinligini ta'kidlagan¹¹. Shu o'rinda ushbu iqtisodchining fikr-mulohazalariga kichik raddiya yoki qo'shimcha sifatida keltirib o'tishimiz lozimki, qimmatli qog'ozlar nafaqat mulkiy huquqlarni, balki nomulkiy huquqlarni ham o'z egalariga taqdim etishi mumkin.

V.A. Tatyannikovaning ta'kidlashiga ko'ra, "Qimmatli qog'oz vaqtincha bo'sh pul mablag'larini investitsiya qilish vositasidir"¹² – deya talqin qilingan.

Mahalliy iqtisodchilardan I.L. Butikovning fikricha, "Qimmatli qog'ozlar – bu hujjat shaklidagi yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotlar (depozitariylar)dagi hisobraqamlarda yozuvlar ko'rinishida alohida usul bilan tasdiqlanadigan, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qarz yoki aksiyadorlik kapitali ko'rinishida jalb etiladigan mablag'larni jalb qilish, qayta taqsimlash va qaytarib to'lash sohasidagi mulkiy hamda u bilan bog'liq nomulkiy huquqlardir"¹³.

Sh.Sh. Shoxa'zamiyga ko'ra, "Qimmatli qog'oz – bu, umuman olganda, monetizatsiyalashgan (pul bilan ta'minlangan) real bazisga ekvivalent ("egiz-analog") qiymatga (bahoga) va xossalarga ega bo'lgan, maxsus iqtisodiy-informatsion-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan, o'ziga xos bozordagi moliyaviy munosabatlarni belgilovchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, moliyaviy resurslarni taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlovchi, muayyan hollarda ma'lum daromad keltiruvchi vosita sifatida har xil turlarda, shakl va mazmunlarda namoyon bo'ladigan investitsion kapital, ham to'lov vositasi, ham fond bozorining alohida tovaridir"¹⁴.

Qimmatli qog'ozlar bozori esa iqtisodiyotning barometri sifatida ko'rib, moliya-kredit tizimining eng yirik bo'g'inlaridan hisoblanadi. Moliya bozori ushbu segmentining nazariy-metodologik asoslari, ya'ni ushbu bozor bo'yicha nazariy qarashlar, uning funktsiya va vazifalari hamda institutsional asoslari haqida jahon va mahalliy yetakchi iqtisodchilari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalaridan ko'rinadiki, qimmatli qog'ozlarning har qanday turi QQBda savdo instrumenti sifatida namoyon bo'lib, o'z egalariga qandaydir naf olib keladigan moliyaviy vosita hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar davomida xorijiy va mahalliy iqtisodchilarning QQBning shakllanishi, rivojlanishi hamda samarali amal qilishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlarini o'rganib chiqildi. Tadqiqotlar bo'yicha "Qimmatli qog'ozlar bozori" iqtisodiy kategoriyasiga berilgan mualliflik ta'riflarini tizimlashgan holda quyidagi 1-jadvalda taqdim etamiz. 1-jadvalda turli iqtisodchilar hamda ayrim xalqaro moliya institutlarining QQB mazmuni yuzasidan mualliflik pozitsiyalari hamda yondashuvlari keltirib o'tilganiga guvoh bo'lamiz. Ushbu jadvaldan xulosa qilish mumkinki, ayrim manbalarda QQB iqtisodiy kategoriyasiga ma'lum xususiyatlarga ega hamda ayrim funksiyalarni bajaradigan tizim sifatida ta'rif berilgan bo'lsa, boshqa manbalarda ma'lum shartlarni bajaradigan mexanizm sifatida qaralgan, yana boshqalari esa kichik bir iqtisodiy makon deb xulosaga kelishgan.

¹¹ Федотов Г.А. Ценные бумаги: понятие, виды, правовой режим. – М.: Юридическая литература, 2006.

¹² Oldingi manba.

¹³ I.L.Butikov. Qimmatli qog'ozlar bozori. Darslik. T.: Konsauditform. 2001 y.17-b (496 b).

¹⁴ Sh.Sh.Shoxa'zamiy va boshqalar. Qiimmatli qog'ozlar. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2010. 5-b (130 b).


“Qimmatli qog‘ozlar bozori” iqtisodiy kategoriyasining talqini bo‘yicha turli yondashuvlarning qiyosiy tahlili¹⁵

№	Mualliflar	Talqini
1.	Jahon banki (The World Bank)	QQB - bu kompaniyalar va hukumatlar qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali kapitalni jalb qilishlari mumkin bo‘lgan mexanizm bo‘lib, investorlar foyda olish yoki riskni boshqarish uchun ushbu qimmatli qog‘ozlarni sotib olishlari va sotishlari mumkin.
2.	QQ komissiyalarining xalqaro tashkiloti (IOSCO)	QQB - bu emitentlar, investorlar, vositachilar, savdo maydonchalari va qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishi, muomalasi va savdosini ta‘minlovchi infratuzilmani o‘z ichiga olgan tizim.
3.	“Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun	QQB — yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq munosabatlari tizimi
4.	Sharp U.F., Aleksander G.Dj., Beyli D.V.	Moliya bozori (yoki QQB) - moliya bozori yoki qimmatli qog‘ozlar bozori bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar xaridorlari va sotuvchilarini birlashtirish orqali moliyaviy aktivlar almashinuvini osonlashtirish mexanizm.
5.	Harry Markowitz	Qimmatli qog‘ozlar bozori investorlar riskni kamaytirish uchun o‘z portfellarini diversifikatsiya qilishlari mumkin bo‘lgan joydir.
6.	Frank J. Fabozzi	QQB - bu qimmatli qog‘ozlar savdosi jarayonining barcha ishtirokchilari (professional va noprofessional) o‘rtasidagi kapital va qimmatli qog‘ozlarning erkin aylanishini ta‘minlovchi o‘zaro bog‘liqlik tizimi.
7.	Zvi Bodie, Alex Kane, Alan J. Marcus	Qimmatli qog‘ozlar bozorlari investorlar aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qiladigan kanallardir.
8.	Mirkin Ya.M.	QQB - bu qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va muomalaga kiritish bo‘yicha uning ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarning uyushgan tizimi.
9.	Rubsov B.B.	QQB - bu qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish jarayonida emitentlar, investorlar va bozorning professional ishtirokchilari o‘rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidir.
10.	Galanov V.A.	QQB - bu emitentlar, investorlar, QQBning professional ishtirokchilari va nazorat qiluvchi organlar o‘rtasida qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi.
11.	Burenin A.N.	QQB - qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va muomalasi jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui bo‘lib, uyushgan savdo maydonchalari, bozorning professional ishtirokchilari va rivojlangan infratuzilma mavjudligi bilan tavsiflanadi.
12.	Butikov I.L.	QQB – bu jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, ularning muomalada bo‘lishi va so‘ndirilishi bilan bog‘liq munosabatlar tizimidir.
13.	Shoxa‘zamiy Sh.Sh.	QQB - moliya bozorining o‘zagi bo‘lib, mamlakat iqtisodiy o‘sishiga yordam beradi. QQB har bir fuqaro va tadbirkorlik subyektiga qimmatli qog‘ozlarni sotib olish orqali investitsiya jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatini beradi.
14.	Karimqulov J.I.	QQBda (Fond bozorida) faqat QQlar muomalada bo‘lganligi munosabati bilan uning o‘ziga xosligi va boshqa turdagi bozorlardan keskin ajralib turishi hamda qimmatli qog‘ozlar emissiyasi, investitsiya va ularning savdosi jarayonlarida markaziy o‘ringa ega ekanligi bilan belgilanadi.

¹⁵Jahon bankining turli nashrlari va moliyaviy sektor rivojlanishiga oid hisobotlari., IOSCO Objectives and Principles of Securities Regulation: <https://www.iosco.org/library/pubdocs/pdf/IOSCOPD154.pdf>, O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni., Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: пер. с англ. – М.: «ИНФРА-М», 2001. – С. 29.; Markowitz, Harry. "Portfolio Selection." Journal of Finance, 1952, Fabozzi, Frank J. Bond Markets, Analysis and Strategies. Prentice Hall, 2000, Bodie, Zvi, Alex Kane, and Alan J. Marcus. Investments. McGraw-Hill/Irwin, 2018, Миркин Я.М. Ценные бумаги и фондовый рынок. – М.: Перспектива, 1995. – С. 15., Рубцов Б.Б. Рынок ценных бумаг. – М.: ИНФРА-М, 2002. – С. 18., Галанов В.А. Рынок ценных бумаг. – М.: Финансы и статистика, 2003. – С. 12., Буренин А.Н. Рынок ценных бумаг. – М.: Дело, 2007. – С. 16., I.L.Butikov. Qimmatli qog‘ozlar bozori. Darslik. T.: Konsauditform. 2001 y.17-b (496 b). Шохаззамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги - Книга II. Учебник. Т.:«IQTISOD-MOLIYA, 2005.

Yuqoridagi ta’riflarni o’rganib mualliflik ta’rifimizni quyidagi tarzda keltirib o’tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, ya’ni “QQB – bu emitentlar va investorlar, yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog’ozlar bilan bog’liq turli operatsiyalarni amalga oshirishi uchun yaratilgan maxsus iqtisodiy makondir”.

QQB iqtisodiy rivojlanishga katta ta’sir ko’rsatadi, xususan, investitsiyalar va iste’mol o’sishini rag’batlantirish, korxonalarni moliyalashtirish kanallarini ta’minlash, sanoatni yangilash va innovasion rivojlanishni rag’batlantirish, makroiqtisodiy siyosatni qo’llab-quvvatlash orqali iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o’ynaydi. Quyidagi 1-rasmda QQBning iqtisodiyotdagi rolini umumiy tarzda keltirib o’tganmiz.




1-rasm. Iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb qilishda QQBning roli¹⁶

1-rasmdan kuzatish mumkinki, QQB iqtisodiy tizim markaziy qismidan uning yadrosi ko’rinishida o’rin olib, turli darajadagi investorlar, jumladan, davlat, institutsional investorlar, xo’jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy hamda boshqa yuridik shaxslar tomonidan investitsiyalar jalb qilish va daromad olishlari uchun asosiy iqtisodiy makon sifatida aks ettirilgan.

Quyidagi 2-rasmda QQBning keng tarzda ifodalangan strukturaviy ko’rinishini taqdim qilamiz.

¹⁶ Muallif ishlanmasi.



2-rasm. Qimmatli qog'ozlar bozorining tasnifiy tuzilmasi¹⁷

Yuqoridagi 2-rasmdan kuzatish mumkinki, QQBning umumiy tarzda strukturasi turli daraja va xususiyatlar bo'yicha tasniflanadi.


Iqtisodiyotda QQBning rolini oshirish zaruriyati shundan ko'rinadiki, bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar turli instrumentlar yordamida iqtisodiyotiga investitsiya jalb qilishning yangidan yangi mexanizmlarini yaratishga, rivojlangan davlatlar esa maksimal tarzda o'z hududidan kapital oqimini chiqib ketishiga (Capital flight) yo'q qo'ymaslikka harakat qilmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining regulyativ asoslari hamda unga ta'sir etuvchi omillar”** deb nomlangan bo'lib, unda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha jahon amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston iqtisodiyotiga qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalar jalb qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning tasniflanishi hamda ularning tavsifi tadqiq qilingan.

Ma'lumki, iqtisodiyotda har qanday soha va tarmoq xohlagan tarzda, o'zi bilganicha faoliyat yurita olmaydi. Chunki, soha va tarmoqlar qandaydir tarzda tartibga solinishi hamda nazorat qilinishi shart bo'lgan masaladir. Iqtisodiyot soha va tarmoqlari ham bir nechta bo'lib, ularning har biriga o'ziga xos funktsiya va vazifalar taqsimlanib beriladi hamda ularning faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun tartibga solish jarayoni o'ta muhim hisoblanadi.

Quyidagi 3-rasmda biz QQB faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha davlat organlari javobgarlik sohalarini keltirib o'tamiz.

¹⁷ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



3-rasm. Vakolatli davlat tashkilotlarining qimmatli qog'ozlarning emissiyasi, muomalasi va so'ndirilishi bo'yicha javobgarliklari sohasi¹⁸

3-rasmdan kuzatish mumkinki, ILMA bugungi kunda O'zbekistonda korporativ hamda hosilaviy QQB kabilarni, davlat QQB faoliyatini esa Iqtisodiyot va moliya vazirligi tartibga soladi. Depozit yoki jamg'arma sertifikatlar va bank veksellarni chiqarishlarni esa Markaziy bank nazoratga olib tartibga soladi.

2-jadval

QQBni tartibga solish bo'yicha davlat regulyatorlari¹⁹


№	O'zbekistonda QQBni tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha vakolatli davlat regulyatorlari		
	Nomlanishi	Sanasi	Yuridik asosi
1.	Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi	27-mart 1996-yil	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 26-martdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mulki qo'mitasi huzurida qimmatli qog'ozlar bozori ishlashini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazini tashkil etish to'g'risida" gi PF-1414-son farmoni
2.	Kapital bozorini rivojlantirish agentligi	24-yanvar 2019-yil	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi "Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4127-son qarori
3.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	1-may 2021-yil	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5073-son qarori
4.	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	1-yanvar 2023-yil	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-son farmoni
5.	Istiqbolli loyihalar milliy agentligi	2-sentabr 2023-yil	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrda "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-291-son qarori

2-jadvaldan kuzatishimiz mumkinki, oxirgi 30 yil mobaynida QQBda davlat regulyatorlari bir necha marotaba o'zgargan.

Quyidagi 4-rasmda biz O'zbekistonda QQBni umumiy tizimini zamonaviy holatini namoyon etamiz.

¹⁸ Muallif tomonidan shakllantirildi.

¹⁹ Muallif tomonidan shakllantirildi.



4-rasm. O'zbekiston Respublikasi milliy QJB tizimi²⁰.

²⁰ Muallif tomonidan shakllantirildi.

4-rasmdan kuzatishimiz mumkinki, bugungi kunda O‘zbekistonda QQBni amal qilish mexanizmi mutlaqo yangi formatda tashkil qilinib, keltirib o‘tganimizdek, yangi regulyator tomonidan milliy qonunchilikda keltirilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatining rivojlanish tendensiyalari: milliy va xalqaro amaliyot”** nomli uchinchi bobida qimmatli qog‘ozlar bozori orqali jalb qilingan investitsiyalarning xorij amaliyoti tahlili, O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozoriga investitsiyalar jalb qilish amaliyoti tahlili hamda iqtisodiyotga qimmatli qog‘ozlar bozori orqali xorijiy investitsiyalar jalb qilishga ta’sir etuvchi omillarni baholash masalalari yoritilgan.

Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan global moliyaviy vaziyat dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga ham ta’sir o‘tkazmoqda. Jahonning har bir mamlakati qanday darajada rivojlangan davlat bo‘lmasin, har bir sent investitsiya uchun xalqaro QQBda raqobatda yutish maqsadida kurash olib bormoqda. Zamonaviy sharoitlarda davlatlar o‘rtasida investitsiyalar uchun kurash – bu kapitalni jalb qilish uchun mamlakatlar, mintaqalar va kompaniyalar o‘rtasidagi keskin raqobat jarayoni hisoblanadi. Ushbu kurash bugungi kunda bir necha omillarga bog‘liqligi bilan xarakterlanadi:

1. Globallashuv va raqobatning kuchayishi, ya’ni yangi bozorlarning ochilishi va savdoni liberallashtirish kompaniyalarning eng qulay shartlar asosida qaerga sarmoya kiritishni tanlashini anglatdi. Bundan tashqari mamlakatlar investorlarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar, soddalashtirilgan ro‘yxatga olish tartib-qoidalari va boshqalar kabi turli xil imtiyozlarni taklif qilish orqali faol raqobatlashadi.

2. Texnologik o‘zgarishlar, ya’ni texnologiyalar, xususan, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va yashil energiya sohasidagi jadal taraqqiyot yangi sarmoyaviy imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu sohalarga sarmoya jalb eta oladigan mamlakatlar kelajakda katta ustunlikka ega bo‘ladi.

3. Geosiyosiy beqarorlik, ya’ni dunyoning ayrim mintaqalaridagi urushlar, mojarolar va siyosiy beqarorlik investorlarni yanada ehtiyotkor bo‘lishga majbur qiladi.

4. Iqlim o‘zgarishi, ya’ni iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida xabardorlikning o‘sishi investorlarning atrof-muhit omillariga tobora ko‘proq e’tibor qaratishlariga sabab bo‘lmoqda.

Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, bugun dunyoda kuzatilayotgan vaziyatlar investorlarni kamroq risk qilishga majbur qilmoqda, shu munosabat bilan ular maksimal tarzda riski pastroq instrumentlarga qiziqmoqda. Bunday holatda ular o‘zlarining investitsiya portfellarini ham doimiy ravishda diversifikatsiyalab bormoqda.

Biz quyidagi 3-jadvalda aynan so‘nggi yillarda jahonda investitsiyalar hajmi va dinamikasi bo‘yicha ayrim raqamlarni keltirib o‘tamiz.

2015–2023-yillarda dunyo mamlakatlari kesimida investitsiyalar dinamikasi, 31-dekabr sanasi holatiga²¹

№	Mamlakatlar	O'zlashtirilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, mlrd. AQSh dollari									Portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymati, mlrd. AQSh dollari								
		2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	AQSh	467,6	459,4	308,9	203,2	229,9	93,2	389,4	332,3	310,9	12026,0	13018,2	14609,2	14489,1	16597,2	19685,5	22167,1	18939,0	23623,2
2.	Yaponiya	2,9	19,3	9,3	9,9	13,7	11,7	34,2	34,1	21,433	2024,5	2127,2	2616,3	2459,9	2772,1	3403,1	3217,1	2890,0	3057,5
3.	Germaniya	20,3	22,6	48,3	72,02	52,6	69,9	51,2	27,4	36,698	2887,0	2753,7	3120,4	2817,9	3023,1	3491,0	3340,9	2747,2	3122,2
4.	Kanada	43,8	36,05	22,7	37,6	50,5	25,5	60,3	46,1	50,3	1288,3	1529,0	1783,0	1781,7	1973,4	2199,9	2582,2	2294,3	2565,4
5.	Fransiya	45,8	23,9	29,3	34,6	20,4	13,1	34,1	75,9	42,03	3044,0	3069,9	3583,7	3401,4	3764,4	4316,5	4255,3	3666,1	4230,2
6.	Koreya Respublikasi	4,1	12,1	17,9	12,1	9,6	8,7	22,06	25,04	15,1	451,9	510,1	666,6	602,1	657,6	849,0	803,3	670,3	783,0
7.	Xitoy Xalq Respublikasi	135,5	133,7	136,3	138,3	141,2	149,3	180,9	189,1	163,2	822,2	838,7	1159,2	1192,4	1457,4	1917,4	2008,0	1627,1	1711,1
8.	Argentina	11,7	3,2	11,5	11,7	6,6	4,8	6,9	15,4	22,9	35,5	58,8	104,2	80,7	51,4	41,7	37,3	29,4	35,3
9.	Singapur	59,7	67,5	85,3	73,1	97,5	74,8	126,6	141,1	159,6	275,1	303,7	425,2	334,3	367,8	376,6	440,8	425,7	536,9
10.	Rossiya Federatsiyasi	11,8	37,1	25,9	13,2	32,07	10,4	38,6	- 15,2	8,3	125,8	171,1	196,1	168,3	231,5	181,3	185,1	58,1	51,5
11.	Turkiya	18,9	13,6	11,1	12,5	9,4	7,6	11,4	13,4	10,4	129,6	113,5	135,2	100,5	107,1	97,7	74,1	65,2	74,6
12.	Saudiya Arabistoni	3,9	21,9	1,01	12,1	3,07	1,6	23,1	28,05	12,3	10,4	16,6	26,0	32,8	73,4	54,9	116,6	109,5	75,8
13.	Misr Arab Respublikasi	6,9	8,1	7,4	8,1	9,01	5,8	5,1	11,4	9,8	9,6	11,0	30,3	30,8	50,7	46,3	46,7	24,3	23,3
14.	Qozog'iston	4,057	8,514	4,714	3,898	3,284	3,670	3,353	6,541	3,223	13,9	13,8	17,6	14,1	16,1	18,5	22,0	14,2	14,8
15.	O'zbekiston	1,041	1,663	1,797	0,625	2,316	1,728	2,275	2,498	2,187	0,10	0,10	0,10	0,13	1,28	1,97	4,16	3,58	3,41

²¹ <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024> Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Rivojlanish bo'yicha Konferensiyasi (UNCTAD) hisobotlari va <https://data.imf.org/?sk=b981b4e3-4e58-467e-9b90-9de0c3367363> Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlarini tizimlashtirgan holda muallif tomonidan shakllantirildi.

3-jadvaldan kuzatish mumkinki, AQSh va Fransiya kabi dunyoning eng rivojlangan mamlakati kategoriyasiga kiruvchi mamlakatlarda esa to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 2023-yilda 2015-yilga nisbatan kamaygan, lekin portfel investitsiyalar umumiy qiymati esa AQShda deyarli ikki barobarga oshib, 23,6 trln. AQSh dollarini tashkil qilganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Osiyo mamlakatlari bo‘yicha raqamlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, e‘tiborimiz albatta Xitoy Xalq Respublikasiga tushadi. Portfel investitsiyalar bo‘yicha Xitoyda tahlil etilayotgan davrda 2 barobardan ortiq o‘sish kuzatilgan. Shu o‘rinda O‘zbekiston bo‘yicha raqamlarni tahlil qilsak, mamlakatimizda so‘nggi 9 yil ichida jalb qilingan xorijiy to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmi deyarli 2 barobarga oshgan, portfel investitsiyalar esa 30 barobarga ko‘payib, 3,41 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilganligini e‘tirof etib o‘tishimiz lozim.

Quyidagi 4-jadvalda biz portfel investitsiya aktivlari bo‘yicha yetakchi davlatlar o‘ntaligini ko‘rib chiqamiz.

4-jadval

2023-yil 31-dekabr holatiga portfel investitsiya aktivlari bo‘yicha yetakchi davlatlar o‘ntaligi²²

№	Davlat nomi	Umumiy portfel investitsiya aktivlari, mlrd. AQSh dollarida	Jumladan:			
			Ulushli qimmatli qog‘ozlar	Umumiy qarz qimmatli qog‘ozlari	Jumladan:	
					Uzoq muddatli	Qisqa muddatli
1.	AQSh	15210,4	11359,4	3851,0	3397,1	453,8
2.	Lyuksemburg	5864,9	3043,6	2821,3	2384,9	436,3
3.	Kayman orollari	5689,8	3141,1	2548,6	2213,3	335,3
4.	Irlandiya	4921,1	2328,4	2592,7	1926,2	666,4
5.	Yaponiya	4350,2	2033,2	2316,9	2290,6	26,3
6.	Germaniya	4309,2	2084,5	2224,7	2168,2	56,4
7.	Birlashgan Qirollik	4202,6	2678,0	1524,6	1364,5	160,0
8.	Fransiya	3370,0	1148,7	2221,3	1937,9	283,3
9.	Kanada	2578,1	1925,5	652,5	640,9	11,6
10.	Niderlandiya	2249,0	1259,9	989,0	929,9	59,0
	Boshqalar	27547,3	13514,0	14032,6	11832,0	2199,8
	Dunyo bo‘yicha jami	80293,0	44516,7	35775,6	31086,1	4688,8

Yuqoridagi 4-jadvaldan kuzatishimiz mumkinki, 2023-yil dekabr oyi yakuniga ko‘ra, dunyoda portfel investitsiyalar bo‘yicha umumiy aktivlar 80 trln. AQSh dollaridan oshadi. Shundan 15 trln. AQSh dollaridan oshiq qismi AQShga tegishli bo‘lib, o‘zidan keyingi o‘rindagi Lyuksemburg va Kayman orollari kabi davlatlarning umumiy portfelidan oshiq hajmdagi aktivlarga ega. E‘tiborlisi Lyuksemburg ham, Kayman orollari ham juda kichik hududga ega mamlakatlar bo‘lib, ushbu davlatlarda investorlarga yaratilgan investitsion muhit yirik miqdordagi portfel investitsiya aktivlari egalik qilishga turtki bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Quyidagi 5-jadvalda esa biz jahon mamlakatlarining portfel investitsiyalar bo‘yicha umumiy majburiyatlarini ko‘rsatib o‘tamiz.

²² <https://data.imf.org/?sk=b981b4e3-4e58-467e-9b90-9de0c3367363> Twelfth Meeting of the IMF Committee on Balance of Payments Statistics ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.


5-jadval

2023-yil 31-dekabr holatiga portfel investitsiya majburiyatlari bo'yicha yetakchi davlatlar o'ntaligi²³

№	Davlat nomi	Umumiy portfel investitsiya majburiyatlari, mlrd. AQSh dollarida	Jumladan:			
			Ulushli qimmatli qog'ozlar	Umumiy qarz qimmatli qog'ozlari	Jumladan:	
					Uzoq muddatli	Qisqa muddatli
1.	AQSh	23623,2	12447,3	11162,6	9980,6	1086,2
2.	Kayman orollari	4941,1	3740,0	1127,7	1111,5	22,0
3.	Lyuksemburg	4887,4	4138,5	750,0	680,3	61,5
4.	Birlashgan Qirollik	4841,2	2473,0	2364,5	1954,2	409,3
5.	Fransiya	4230,2	1655,9	2588,0	2164,8	411,5
6.	Irlandiya	3928,8	3252,2	651,8	580,0	62,1
7.	Germaniya	3122,2	1192,2	1941,9	1538,3	390,2
8.	Yaponiya	3057,5	1862,1	1204,9	695,3	506,4
9.	Niderlandiya	2667,6	1120,9	1546,6	1406,0	140,6
10.	Kanada	2565,4	1192,4	1369,2	1109,4	255,1
Boshqalar		22427,9	11441,7	11068,0	9865,2	1343,3
Dunyo bo'yicha jami		80293,0	44516,7	35775,6	31086,1	4688,8

5-jadvaldan kuzatish mumkinki, 2023-yil dekabr oyining so'nggi kuni holatiga AQSh 23,6 trln. AQSh dollaridan ortiq hajmdagi norezidentlar portfel investitsiyalari bo'yicha majburiyatlarga ega bo'lib, dunyodagi barcha portfel investitsion majburiyatlar umumiy summasining to'rtidan bir qismidan ko'p miqdordagi ulushga ega.

Quyidagi 5-rasmda biz Jahon fond birjalari federatsiyasi umumiy kapitalizatsiyasida uning mintaqalarining so'nggi yillardagi ulushlari o'zgarishini keltirib o'tganmiz.



5-rasm. 2015–2023-yillarda JFBF mintaqalarining uning umumiy kapitalizatsiyasidagi ulushi²⁴, foizda

5-rasm ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, JFBF umumiy kapitalizatsiyasida mavjud 3 ta mintaqaning ulushlari taqqoslanayotgan davrda sezilarli darajada o'zgargan. Jumladan, 2015-yil 31-dekabr holatiga Amerika mintaqasining ulushi 36,4 foiz bo'lgan bo'lsa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasining

²³ <https://data.imf.org/?sk=b981b4e3-4e58-467e-9b90-9de0c3367363> Twelfth Meeting of the IMF Committee on Balance of Payments Statistics ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

²⁴ <https://www.world-exchanges.org> ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitoblari asosida shakllantirildi.

ulushi 38,4 foiz bo'lgani holda yetakchilik qilgan. Ammo QQBni yanada rivojlantirish bo'yicha investorlarni jalb qilish bo'yicha olib borilgan samarali liberal siyosat tufayli, Amerika mintaqasi 2023-yilga kelib 48,3 foizlik natijani ko'rsatgan. 2023-yil oxirida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi 30 foizdan ko'proq ulushni, Yevropa-Afrika-Yaqin Sharq mintaqasi esa 21,1 foizlik ulushni egallagan.

Quyidagi 6-jadvalda biz QQB kapitalizatsiyaisi eng yuqori bo'lgan davlatlar ro'yxatini taqdim qilamiz.

6-jadval

2015–2023-yillarda jahon mamlakatlari kesimida qimmatli qog'ozlar bozori kapitalizatsiyasi hajmi²⁵, mlrd. AQSh dollarida

№	Mamlakat nomi	Yillar								
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	AQSh	19926,1	23847,2	29237,4	27992,4	32838,1	39396,1	45416,4	40724,9	48769,8
2.	Xitoy Xalq Respublikasi	5208,5	6609,4	8252,1	5665,9	7501,7	11164,3	11812,0	11115,1	8258,5
3.	Euronext	3190,9	3490,2	4693,7	4102,4	4858,5	4884,0	7006,4	6626,3	6797,5
4.	Yaponiya	4513,8	5149,0	6505,7	5622,6	6062,4	6638,0	6199,0	5650,2	6340,0
5.	Gonkong	3546,6	4236,1	5902,2	5188,8	5245,0	6861,3	6028,7	5572,3	4490,8
6.	Hindiston	1387,1	1686,0	2423,9	1977,0	2144,9	2499,3	3453,7	3209,4	4386,9
7.	Birlashgan Qirollik	3150,4	3173,1	3496,1	3218,3	3368,6	3238,7	3356,8	3083,2	3034,1
8.	Kanada	1557,7	2067,8	2315,9	2110,2	2346,0	2566,3	3075,2	2913,4	2898,3
9.	Germaniya	1687,5	1955,6	2565,8	2069,6	2231,4	2473,9	2602,3	2373,9	2371,6
10.	Koreya Res.	1140,6	1293,9	1817,6	1486,2	1339,4	2090,7	1981,4	1777,0	1748,0
11.	Tayvan	712,7	890,1	1143,8	971,7	1163,2	1624,8	1978,5	1620,4	1836,7
12.	Avstraliya	973,2	1229,7	1458,4	1268,7	1372,0	1639,3	1645,8	1718,3	1615,8
13.	Braziliya	425,5	774,5	1012,5	997,7	1045,7	865,1	840,6	778,2	855,6
14.	Singapur	432,0	505,5	590,1	509,8	474,2	458,9	458,2	435,3	388,4

Yuqoridagi 6-jadvaldan kuzatishimiz mumkinki, 2023-yil oxiriga kelib dunyo mamlakatlari QQB kapitalizatsiyasi bo'yicha AQSh 2015-yildagi 19,9 trln. AQSh dollari miqdoridagi natijani, taqqoslanayotgan davr yakuniga kelib deyarli 2,5 barobar hajmga ko'paytirib, 48,7 trln. AQSh dollarlik marrani zabt etgan. E'tiborli jihati shundan iboratki, Osiyo mamlakatlari Xitoy, Yaponiya, Gonkong, Koreya Respublikasi, Hindiston, Tayvan va Singapur ushbu reytingdan mustahkam o'rin olganidir, ularning jami kapitalizatsiyasi 2015-yilda 16,9 trln. AQSh dollaridan oshgan bo'lsa, 2023-yil oxiriga kelib 27,4 trln. AQSh dollarini tashkil qilgan.

Iqtisodiyotda QQB faoliyatining qanchalik darajada o'rni va rolini ifodalaydigan muhim ko'rsatkichlardan yana biri bu jami fond bozori kapitalizatsiyasining mamlakat YalMga nisbati bo'lib, u fond bozorining iqtisodiy o'sishga nisbatan qiymatini o'lchab beradi. Bu nisbat Baffet ko'rsatkichi (Buffett Indicator) sifatida ham tanilgan, chunki Uorren Baffet bir paytlar bu nisbat fond bozorining umumiy bahosini o'lchash uchun samarali vosita ekanligini ta'kidlagan va quyidagicha hisoblanadi.

$$\text{Buffett Indicator} = \frac{\text{Total stock market value}}{\text{Country's GDP}} * 100\% \quad (1)$$

²⁵<https://en.macromicro.me/collections/20933/global-stock-market/99909/world-total-market-capitalization-of-stock-markets> ma'lumotlar asosida muallif tomonidan muvofiqlashtirilib shakllantirildi.

Quyidagi 7-jadvalda dunyo mamlakatlari kesimida umumiy kapitalizatsiya hajmini ularning YaIMga nisbatini keltirib o‘tamiz.


7-jadval

**2015-2023-yillarda Baffet indikatori bo‘yicha
mamlakatlar ko‘rsatkichlari, foizda²⁶**

№	Mamlakat nomi	Yillar								
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	AQSh	108,1	124,5	145,1	133,2	152,8	178,7	186,2	153,7	172,6
2.	Xitoy X.R.	46,39	53,8	59,6	39,5	50,4	62,8	66,1	62,5	45,1
3.	Euronext	37,2	38,5	47,8	42,6	52,2	46,3	68,5	59,4	58,3
4.	Yaponiya	90,2	104,4	129,0	109,8	119,9	131,7	145,1	133,9	155,7
5.	Gonkong	1142,2	1298,3	1701,8	1426,8	1447,8	1950,8	1650,7	1536,6	1158,6
6.	Hindiston	60,4	63,5	89,68	69,7	80,1	78,9	102,9	89,9	112,8
7.	Birlashgan Qirollik	116,7	118,3	137,2	112,8	124,8	103,0	107,4	91,1	84,5
8.	Kanada	102,3	130,4	143,5	112,3	138,1	159,5	162,5	126,9	143,6
9.	Germaniya	47,7	51,9	63,3	52,3	56,6	56,8	62,4	52,4	50,3
10.	Koreya Res.	72,2	75,6	99,6	84,8	76,7	107,6	110,1	96,6	93,4
11.	Tayvan	139,6	158,0	184,7	162,1	183,3	225,0	248,6	207,8	237,0
12.	Avstraliya	87,8	105,0	113,6	88,3	106,6	129,3	121,0	99,1	106,9
13.	Braziliya	27,2	42,2	46,2	47,8	63,3	66,9	48,8	40,6	53,8
14.	Singapur	135,4	147,2	156,5	135,2	135,7	105,7	91,9	86,8	73,1
15.	Rossiya	28,8	48,7	39,6	34,7	46,7	46,5	45,6	23,3	33,0

7-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, QQB jami kapitalizatsiyasining mamlakat YaIMga nisbatini ifodalovchi Baffet indikatori bo‘yicha Gonkong juda katta farq bilan, ya’ni 2015-yildagi 1142,2 foiz va 2023-yil yakuniga ko‘ra 1158,6 foizlik ko‘rsatkich bilan mutlaq yetakchi sifatida qayd etilgan. AQSh, Kanada va Braziliya kabi Amerika mintaqasidagi davlatlarda ham taqqoslanayotgan davrda mos ravishda 172,6 foiz, 143,6 foiz va 53,8 foizlik ko‘rsatkichlar bilan o‘shish kuzatilgan. Osiyo mamlakatlaridan Tayvan 2015-yildagi 139,6 foizlik ko‘rsatkichga, 2023-yilga kelib 237 foizlik natijaga erishgan.

Biz global QQBning segmentlari bo‘yicha turlari bo‘yicha bozor faolligini ifoda etuvchi raqamlarni quyidagi 6-rasmda keltirib o‘tamiz.



**6-rasm. 2015–2023-yillarda Global QQB segmentlarining rivojlanish
dinamikasi, mlrd. AQSh dollari²⁷**

²⁶<https://en.macromicro.me/collections/20933/global-stock-market/99909/world-total-market-capitalization-of-stock-markets> va <https://data.worldbank.org/indicator/CM.MKT.LCAP.CD?view=chart> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan muvofiqlashtirilib shakllantirildi.

²⁷<https://www.sifma.org/resources/general/2024-capital-markets-outlook/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

6-rasmdan kuzatish mumkinki, global aksiyalar bozori kapitalizatsiyasi 2015-yilda 68,5 trln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 115 trln. AQSh dollaridan oshib, deyarli 60 foizga yaqin o'sish kuzatilgan. Global daromadi belgilangan qimmatli qog'ozlar bozorida ham taqqoslanayotgan davrda o'sish kuzatilib, 2015-yilda uning miqdori 84,5 trln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 140 trln. AQSh dollaridan oshib, huddi global aksiyalar bozori kapitalizatsiyasi kabi 60 foizdan ortiq ko'paydi.

Quyidagi 8-jadvalda QQBning dunyo bo'yicha rivojlanishi dinamikasini tavsiflovchi ayrim ko'rsatkichlarni keltirib o'tamiz.

8-jadval

2015-2023-yillarda dunyo QQBning rivojlanishini tavsiflovchi indikatorlar²⁸


№	Indikator nomi		Yillar								
			2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Jami aksiyalar bozori	Bozor kapitaliza- siyasi, <i>mlrd. AQSh dollari</i>	76829,6	89898,6	87725,4	76827,6	89785,2	106753,1	120953,1	101392,5	111863,1
2.		Listing kompaniyalari soni	53000	51754	52038	52143	57848	58177	60169	58988	55961
3.		Jalb qilingan investitsiyalar jami: <i>mlrd. AQSh dollari</i>	925,6	814,3	879,5	680,1	679,5	945,6	1809,6	1060,4	498,6
4.		<i>Shu jumladan, IPO orqali jalb qilingan investitsiyalar</i>	185,3	131,8	211,3	208,8	200,5	281,4	508,8	274,7	117,7
5.	Obligatsiyalar bozori	Jalb qilingan kapital jami, <i>mlrd. AQSh dollari</i>	4378,4	3484,8	4498,8	5250,3	6796,2	12364,8	14639,7	24408,4	6304,5
6.		Obligatsiya emitentlari soni	24892	465	600	2393	7637	7990	9154	9266	8308
7.	Dunyo bo'yicha YaIM hajmi, <i>mlrd. AQSh dollari</i>		75440,1	76683,3	81611,3	86592,4	87741,2	85483,5	97329,0	100834,7	105022,7

8-jadvaldan kuzatish mumkinki, e'tiborli jihati shundan iboratki, jahon YaIM hajmi taqqoslanayotgan davrda o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, dunyo bo'yicha aksiyalar bozori kapitalizatsiyasidan past ko'rsatkichni namoyon qilgan. Dunyo aksiyalar bozori orqali jalb qilingan investitsiyalar oxirgi 9 yillikda deyarli 2 martaga kamayib ketganligini alohida ta'kidlash mumkin. Bunga sabab qilib oxirgi yillarda dunyoda kuzatilayotgan nobarqaror geosiyosiy vaziyatni keltirib o'tish mumkin. Dunyo obligatsiyalar bozori esa biroz boshqacha holatga guvoh bo'lishimiz mumkin, ya'ni 2015-yilda ushbu bozor orqali 4,3 trln. AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilingan bo'lsa, 2023-yilga kelib ko'rsatkich 6,3 trln. AQSh dollariga yetgan.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi davrda dunyoning turli mamlakatlarida kuzatilayotgani kabi O'zbekistonda ham o'ta muhim va kechiktirib bo'lmaydigan islohotlar amalga oshirilmoqda. Buni iqtisodiyotning bir nechta sektorlarida bo'lgani kabi moliya-kredit tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan QQB bo'yicha ham ta'kidlashimiz mumkin.

Quyidagi 7-rasmda biz mamlakatimiz QQBda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari jami aksiyadorlik kapitali va unda davlat ulushi to'g'risidagi ma'lumot keltirib o'tilgan.


²⁸<https://unctadstat.unctad.org/datacentre/dataviewer/US.GDPTotal> va <https://statistics.world-exchanges.org/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan muvofiqlashtirilib shakllantirildi.



7-rasm. Milliy QQBda faoliyat yuritayotgan AJlar jami aksiyadorlik kapitali va unda davlat ulushi to'g'risidagi ma'lumot, 31-dekabr holatiga²⁹

7-rasmdan kuzatish mumkinki, 2015-yilda O'zbekiston Respublikasi QQBda mavjud aksiyadorlik kapitali tarkibida davlat ulushi 59,8 foizni, 2024-yil oxiriga kelib 79,9 foizni tashkil qilgan, ya'ni taqqoslanayotgan davrning boshida 209 ta davlat ulushiga ega bo'lgan AJlar tomonidan chiqarilgan aksiyalar hajmi salkam 9,9 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich deyarli 17,5 barobarga oshib 171,6 trln. so'mdan oshganligiga guvoh bo'lamiz.

QQB orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bugungi kunda qanchalik muhim masala ekanligi borasida bir necha marotaba ta'kidlandi. Aynan bugungi kunda O'zbekistonda QQB orqali qiritilgan xorijiy kapital egalarining fond bozori orqali jalb qilingan umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi to'g'risidagi ma'lumotni keltirib o'tish maqsadga muvofiq.





8-rasm. 2019-2024 yillarda O'zbekistonda QQB orqali jalb qilingan investitsiyalar tarkibida xorijiy investorlar ulushi, foizda³⁰

8-rasmdan ko'rish mumkinki, O'zbekistonda QQBning tashkillashgan (uyushgan) bozori orqali jalb qilingan investitsiyalar tarkibida xorijiy investorlar ulushi 2019-yilda 8 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yil yakuniga kelib 20 foizga yetgan. Tashkillashmagan (uyushmagan) bozorda esa huddi shu ko'rsatkich 2019-yilda bor yo'g'i 2 foiz bo'lgan, 2024-yilga kelib esa 12 foizni tashkil etgan.

Quyidagi 9-rasmda QQBning tashkillashgan va tashkillashmagan bozorlarida barcha turdagi investorlarning qimmatli qog'ozlar savdosidagi ishtiroki bo'yicha ma'lumot keltirib o'tilgan.

²⁹ Muallif tomonidan davlat organlari, statistika idoralari, savdo platformalari boshqalar ma'lumotlari asosida hisoblanib shakllantirilgan.

³⁰ Muallif tomonidan davlat organlari, statistika idoralari, savdo platformalari boshqalar ma'lumotlari asosida hisoblanib shakllantirilgan.



9-rasm. O‘zbekiston QQBda barcha turdagi investorlarning qimmatli qog‘ozlar savdosidagi ishtiroki bo‘yicha ma’lumot³¹

9-rasmdan kuzatish mumkinki, milliy valyutadagi bitimlar hajmi tashkillashgan bozorda 1,8 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, tashkillashmagan bozorda 250 mlrd. so‘mdan iborat bo‘lgan. AQSh dollaridagi bitimlar bo‘yicha ham o‘rish kuzatilib, mos ravishda tashkillashgan bozorda 220 mln. AQSh dollari, tashkillashmagan bozorda esa 30 mln. AQSh dollari miqdoridagi bitimlar barcha turdagi investorlar tomonidan tuzilgan.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-son Farmonida 2023-yilda erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlarning umumiy hajmini yalpi ichki mahsulotning kamida 5 foiziga yetkazish vazifasi belgilangan edi. Erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar yoki jahon amaliyotidagi zamonaviy kategoriya hisoblangan Free float bugungi kunda baynalminal tushuncha sifatida talqin qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida aynan Free float qanday hisoblanishi bo‘yicha ““Toshkent” Respublika fond birjasi kotirovkalash varag‘i to‘g‘risidagi Nizom”ning 8-ilovasida formula keltirilgan. Unga ko‘ra:

$$Free\ float = (E.\ od.\ aks.\ soni + E.\ imt.\ aks.\ soni) - DU - XJU - Yiu - ChU \quad (2)$$

Ushbu formulada keltirilgan elementlardan DU - Davlat, davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mulkidagi ulush; XJU - Ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkidagi ulushi; Yiu - Emitent ustav kapitalining 5 va undan ortiq foiziga yakka tartibda egalik qiluvchi shaxslarning ulushi; ChU - Cheklangan muomaladagi ulush (garovga qo‘yilgan, REPO shartnomasi bo‘yicha realizatsiya qilingan qimmatli qog‘ozlar).

Demak, O‘zbekiston QQBda yuqorida qo‘yilgan vazifa bo‘yicha ijobiy natija bo‘ldimi? Ushbu savolga quyidagi 10-rasmda mamlakatimizda erkin muomalada bo‘lgan aksiyalarning bozor kapitalizatsiyasi bo‘yicha ma’lumotni keltirib o‘tish javob izlashga harakat qilamiz.

³¹Muallif tomonidan davlat organlari, statistika idoralari, savdo platformalari boshqalar ma’lumotlari asosida hisoblanib shakllantirilgan.



10-rasm. 2020-2024 yillarda erkin muomaladagi aksiyalar bozor kapitalizatsiyasining mamlakat YaIMdagi salmog'i³²

10-rasmda 2020-2024-yillarda erkin muomaladagi aksiyalar bozor kapitalizatsiyasining mamlakatimiz YaIMdagi ulushi keltirilgan bo'lib, 2020-yilda 211,7 mln. AQSh dollaridan oshgani holda 0,40 foizni, 2023-yilda 395,9 mln. AQSh dollari bilan 0,44 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda pasayish kuzatilib, 330,3 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan va YaIMdagi ulushi 0,30 foizni ko'rsatgan.

Quyidagi 9-jadvalda O'zbekistonda QQBning iqtisodiyotdagi rolini aniqlash bo'yicha va uning o'zgarish tendensiyalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

9-jadval

QQB iqtisodiyotdagi rolining o'zgarish tendensiyalari,³³

31-dekabr holatiga

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1. YaIM, trln. so'm	221,35	255,42	356,45	473,65	594,65	668,03	820,53	995,57	1204,48	1454,57
2. YaIM o'sishi, %	107,2	105,9	104,4	105,6	106,8	101,6	108,0	106,0	106,3	106,5
3. QQB savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm	161	299,8	298,4	687,9	438,66	578,15	1 260,51	4 816,21	2712,75	19 563,07
4. YaIMda, QQB savdo aylanmasi ulushi, % da	0,07	0,12	0,08	0,15	0,07	0,09	0,15	0,48	0,23	1,34
5. Aksiyalar bozori savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm	153,5	227,8	92,3	433,15	250,77	504,38	1145,36	4705,79	2516,31	19134,40
6. YaIMda, aksiyalar savdo aylanmasi ulushi, % da	0,07	0,09	0,03	0,09	0,04	0,08	0,14	0,47	0,21	1,32
7. Obligatsiyalar bozori savdo aylanmasi hajmi, mlrd. so'm	7,5	4,0	3,0	237,21	38,57	67,34	113,39	110,42	92,178	428,66
8. YaIMda, obligatsiyalar savdo aylanmasi ulushi, % da	0,003	0,002	0,001	0,050	0,006	0,010	0,014	0,011	0,008	0,029

*QQB savdo aylanmasi tarkibiga REPO operatsiyalari hajmi ham kiritilgan.

³²Muallif tomonidan davlat organlari, statistika idoralari, savdo platformalari boshqalar ma'lumotlari asosida hisoblanib shakllantirilgan.

³³Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblanib shakllantirildi.

9-jadval ko‘rinadiki, 2015-yilda O‘zbekistonda QQB savdo aylanmasi hajmi 161 mlrd. so‘mdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, mamlakat YaIM tarkibidagi ulushi 0,07 foizni tashkil etgan. Biroq, 2024-yil yakunlariga ko‘ra QQB savdo aylanmasi 19,5 trln. so‘mdan iborat bo‘lib, uning mamlakat YaIMdagi ulushi 1,34 foizni tashkil etgan. Tahlillar natijasida aytish mumkinki, taqqoslanayotgan davr oralig‘ida mamlakatimizda QQB savdo aylanmasi 121,5 barobarga ortgan bo‘lishiga qaramasdan, YaIM hajmi ham yuqori o‘shishga erishganligiga guvoh bo‘lamiz. So‘nggi 10 yillikda aksiyalar bozori savdo aylanmasi 124,5, obligatsiyalar bozori savdo aylanmasi esa 57 barobarga ortgan bo‘lishiga qaramasdan umumiy QQB savdo aylanmasining YaIMdagi salmog‘i kamligicha qolmoqda.

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoblanadigan YaIM o‘shishi, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, valyuta kursi hamda QQB savdo hajmi kabi indikatorlarning portfel investitsiyalar hajmini oshirishga ta‘sirini baholash mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Ekonometrik tadqiqotni ishlab chiqish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo‘mitasi hamda Qimmatli qog‘ozlar Markaziy depozitariysi ma‘lumotlari asosida 2017-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan choraklik ma‘lumotlaridan iborat kuzatuvlar soni 25 tani tashkil etuvchi ko‘rsatkichlardan foydalanildi.

Portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymatining pozitiv taqsimot grafigiga ko‘ra, uning umumiy qiymatiga YaIM o‘shishi, moliya bozori kon’yunkturasi, valyuta kursi barqarorligi va inflyatsiya darajasi tendensiyasi birgalikda investitsion oqimlarni belgilaydi hamda xorijiy kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymati va unga ta‘sir etuvchi omillarning o‘zaro korrelyatsion bog‘liqlik matritsasi ishlab chiqildi (10-jadval).

10-jadval

Portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymati va unga ta‘sir etuvchi omillarning o‘zaro korrelyatsion matritsasi ³⁴

<i>Variables</i>	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	<i>Significant</i>
(1) <i>lnportf invest</i>	1.000					
(2) <i>lnsecurities market</i>	0.6329 (0.0421)	1.000				***
(3) <i>lnGDP growth</i>	0.5702 (0.0025)	0.5329 (0.0209)	1.000			***
(4) <i>lninfl rate</i>	-0.6013 (0.0071)	-0.5900 (0.0104)	-0.4112 (0.0302)	1.000		***
(5) <i>lnexchange rate</i>	-0.5024 (0.0869)	-0.4723 (0.0921)	-0.3309 (0.018)	-0.3015 (0.0784)	1.000	*

10-jadval natijalariga ko‘ra, portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymati va unga ta‘sir etuvchi omillarning o‘rtasida kuchli, mustahkam va teskari korrelyatsion bog‘liqlik munosabatini namoyish qilgan. Ushbu jadvaldan kuzatish mumkinki, YaIM o‘shishi hamda QQB savdo aylanmasi hajmining sezilarli ijobiy korrelyatsiyasi portfel xorijiy investitsiyalar hajmiga kuchli ta‘sirini ifodalangan. Inflyatsiya darajasi va valyuta kursi o‘rtasida teskari munosabat portfel investitsiya hajmini kamayishiga bevosita ta‘sirga ega. Jadval bo‘yicha p-qiymatning 0,05 punktdan kichikligini inobatga olgan holda, korrelyatsion koeffitsiyent uchun uning statistik ahamiyatlilik darajasi sharti bajarilgan.

³⁴ STATA dasturi asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Portfel xorijiy investitsiyalar hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning statsionarlik holatini aniqlash bo'yicha Unit-root testi o'tkazildi (11-jadval).

11-jadval

Portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymati va unga ta'sir etuvchi omillarning Unit-root testi ko'rsatkichlari³⁵

<i>O'zgaruvchilar</i>	<i>Test Statistic</i>	<i>1% Critical Value</i>	<i>5% Critical Value</i>	<i>10% Critical Value</i>	<i>p-value for Z(t)</i>
<i>lnportf_invest (bog'liq o'zgaruvchi)</i>	-7.308	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000
<i>lnsecurities_market (mustaqil o'zgaruvchi)</i>	-8.054	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000
<i>lnGDP_growth (mustaqil o'zgaruvchi)</i>	-7.807	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000
<i>lninfl_rate (mustaqil o'zgaruvchi)</i>	-6.787	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000
<i>lnexchange_rate (mustaqil o'zgaruvchi)</i>	-6.594	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000

11-jadvalga ko'ra, natijaviy omilning birlik ildiz testi qiymati -7.308 ni, mustaqil o'zgaruvchilarning test natijasi mos ravishda -8.054, -7.807, -7.807 hamda -6.594 qiymatlarni tashkil etgan. Ushbu qiymatlar portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymati va unga ta'sir etuvchi omillarning statistik jihatdan ahamiyatligini hamda moslashganligidan dalolat beradi.

ARDL modeli formulasi quyida keltirilgan.

$$\ln(\text{portf_invest})_t = \alpha + \beta_1 \ln(\text{securi_market})_t + \beta_2 \ln(\text{GDP_growth})_t - \beta_3 \ln(\text{exchange_rate})_t - \beta_4 \ln(\text{infl_rate})_t + \epsilon_t \quad (3)$$

12-jadval

Portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymati va unga ta'sir etuvchi omillarning ARDL (1,2,1,2,2) modeli asosidagi regression tenglama ko'rsatkichlari³⁶

ARDL(1,2,1,2,2) regression
Sample: 2017q3 thru 2023q1
Log likelihood = 39.712114

Number of obs=25
R-squared= 0.9350
Adj R-squar=0.8570
Root MSE=0.0653

D.lnportf_inv ADJ lnportf_invest	Coefficient	Std. err	t	P>t	[95% conf.intervall]	
L1.	-1.477	0.176	-8.400	0.000	-1.869	-1.086 ***
LR						
lnsecurit_market	0.217	0.083	2.630	0.025	0.033	0.401 ***
lnGDP_growth	0.486	0.124	3.940	0.003	0.211	0.762 ***
lnexchange_rate	-0.316	0.172	-1.840	0.096	-0.700	0.067 *
lninfl_rate	-0.197	0.069	-2.870	0.017	-0.349	-0.044 ***
SR						
lnsecuri_market						
D1.	1.275	0.309	4.130	0.002	0.587	1.962 ***
LD.	0.551	0.248	2.220	0.051	-0.002	1.105 **
lnGDP_growth						
D1.	-0.214	0.082	-2.590	0.027	-0.397	-0.030 ***
lnexchange_rate						
D1.	-0.228	0.143	-1.600	0.141	-0.547	0.090
LD.	0.198	0.104	1.900	0.086	-0.034	0.430 *
lninfl_rate						
D1.	0.221	0.073	3.020	0.013	0.058	0.385 ***
LD.	0.212	0.075	2.820	0.018	0.044	0.380 ***
cons	5.422	1.278	4.240	0.002	2.574	8.270 ***

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

³⁵ STATA dasturi asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

³⁶ STATA dasturi asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

ARDL (1,2,1,2,2) model asosida uzoq muddatli munosabatlarda ekonometrik tenglama quyida keltirilgan:

$$\ln(portf_invest)_t = \alpha + 0.214 \ln(securi_market)_t + 0.48 \ln(GDP_growth)_t - 0.31 \ln(exchange_rate)_t - 0.19 \ln(infl_rate)_t + \epsilon_t$$

O'tkazilgan ekonometrik tadqiqot natijasiga ko'ra:

portfel xorijiy investitsiyalar umumiy qiymatiga qimmatli qog'ozlar bozori savdo aylanmasi hajmining ta'sirini baholash natijasiga ko'ra, QQB savdo aylanmasi hajmining bir foizga oshishi xorijiy portfel investitsiyalarining 0,21 foizga o'sishiga olib keladi. Ushbu natijaga ko'ra yanada faol va likvidli moliya bozori xorijiy investorlarni jalb qiladi;

inflyatsiya darajasining ta'sirini baholash natijasi bo'yicha, inflyatsiya darajasining bir foizga oshishi xorijiy portfel investitsiyalarining 0,19 foizga kamayishiga sabab bo'ladi. Ushbu ekonometrik tenglama natijasiga ko'ra, yuqori inflyatsiya investitsiyalar bo'yicha real daromadni pasayishiga olib keladi, bu esa fond bozoridagi investitsiyaviy jozibadorlikka ta'sir qiladi. Inflyatsiya darajasi, shuningdek, iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqargan holda, noaniqlikni oshiradi va investorlarning ishonchining pasayishiga sabab bo'ladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini ekstensiv rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan. Unda mamlakatimizda QQB faoliyatini rivojlantirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari, xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston QQB faoliyatini takomillashtirish masalalari va O'zbekiston iqtisodiyotiga QQB orqali investitsiyalar jalb qilish istiqbollari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda aynan QQB faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha bir nechta amaliy ishlar olib borildi. O'z o'rnida bu amaliy ishlar mamlakat investitsiya muhitini ham tubdan yaxshilash jarayonida asosiy vazifalar qatoridan o'rin olgan. Lekin bugungi kunda mamlakatimiz QQB faoliyati rivojlanishiga salbiy ta'sir etayotgan va unda investorlar faolligini oshirish qandaydir ma'noda munozarali vaziyat sifatida namoyon bo'layotgan ayrim muammolar borki, ushbu holatlarni bartaraf etish iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda QQBning rolini oshirishga xizmat qiladi. Quyidagi O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishda QQB rolini oshirish va milliy fond bozori faoliyatini yanada rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy muammolarni keltirib o'tamiz:

O'zbekiston Respublikasi QQBda aksiyadorlik kapitali tarkibida davlat ulushining o'ta yuqori darajada saqlanib qolayotganligi; mamlakatda investitsiya faoliyati va QQB faoliyatini tartibga solish bo'yicha xalqaro standartlarga to'la mos kelmaydigan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lib ularni unifikatsiya qilish ishlarining kechikayotganligi; mamlakatdagi mavjud investitsiya muhitining jozibadorligi darajasining yuqori emasligi; QQBni tartibga solish va nazorat qilish yuzasidan mas'ul bo'lgan vakolatli davlat organining ketma-ket almashtirilishi va uning funktsiya hamda vazifalarining o'zgartirilishi, o'z faoliyati doirasida to'la mustaqil emasligi; QQBning tarqoqligi holati; makroiqtisodiy va tashqi omillarning salbiy ta'siri saqlanib qolayotganligi; yaqin xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslaganda

iqtisodiyotda aksiyalar bozori kapitalizatsiyasining pastligi; fond bozoridagi bitimlarning eng katta ulushi (birjadagi hajmning 70 foizdan ortig'i) davlat ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri keladi; qimmatli qog'ozlar bozori instrumentlarining past likvidiligi; QQBga uzoq muddatga katta moliyaviy resurslarga ega yirik institutsional investorlarni jalb qilish bo'yicha ishlarning sustligi; davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni jadallashtirish masalalarining kechikayotganligi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish borasida bizningcha quyidagi ayrim masalalarni ko'rib chiqish va joriy qilish QQB faoliyatini optimallashtiradi hamda uning iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishdagi rolini yanada oshiradi.

Tadqiqotlarimiz mobaynida O'zbekiston iqtisodiyotida QQB rolini oshirish va fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish borasida xususiylashtiriladigan davlat mulklari, shu jumladan davlat aksiya paketlari bo'yicha investorlar tomonidan to'lanadigan shartnoma summasi savdo sanasidagi belgilangan BHMning 20 ming baravaridan oshgan taqdirda to'lovlarni 3 yilgacha bo'lgan muddatda bo'lib to'lashga imkoniyat berish maqsadga muvofiqqligi asoslanib taklif shakllantirildi. Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'RQ-907-son Qonunining 31-moddasi 3-bandida o'z aksini topgan.

Quyidagi 11-rasmda biz davlat ulushi yoki davlatga tegishli aksiya paketlari investor tomonidan sotib olinayotgan paytda ularga shartnomada ko'rsatilgan summani bo'lib to'lash imkoniyati beriladigan imtiyozlar ro'yxatini keltirib o'tamiz.



11-rasm. Davlat mulki oldi-sotdisi bo'yicha investorlarga to'lovlarni bo'lib to'lash yuzasidan berilgan imtiyozlar³⁷

³⁷ O'zbekiston Respublikasining mulkchilik va xususiylashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

11-rasmdan ko‘rish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda davlat mulkini xususiylashtirish maqsadida sotuvga chiqarilish jarayonida investorlarga bir qator imtiyozlar berilgan. Bu esa o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotiga xususiy investitsiyalarni yanada ko‘proq jalb qilish imkoniyatini taqdim qilgani bilan bir qatorda, aynan investorlarning boshqa faoliyatlarida mavjud aylanma mablag‘larini ushbu jarayonga jalb qilinmasligiga ham turtki bo‘ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz moliya bozorida tijorat banklari investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Aynan tijorat banklarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish borasida tadqiqotlarimiz mobaynida xalqaro moliyaviy institutlardan jalb qilingan kredit mablag‘larini bank aksiyalariga konvertatsiya qilish imkoniyatini taqdim qilish asosida tijorat banklari kapitallashuvida xorijiy strategik investorlar ishtirokini ta‘minlashning maqsadga muvofiqligi asoslantirilib taklif shakllantirildi. Mazkur taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-iyuldagi ““O‘zsanoatqurilishbank” ATBning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-253-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizning eng yetakchi tijorat banklaridan biri bo‘lgan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning bugungi kundagi aksiyadorlari to‘g‘risidagi ma’lumot quyidagi 13-jadvalda keltirilgan.

13-jadval

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning aksiyadorlari to‘g‘risida ma’lumot, 2025-yil 1-yanvar holatiga³⁸


№	Aksiyadorlar ro‘yxati	Mln. so‘m	Foizda
1.	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	3 804 574,55	82,19
2.	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	623 753,46	13,48
3.	“O‘ztransgaz” AJ	56 051,93	1,211
4.	Boshqalar (yuridik shaxslar)	104 509, 62	2,258
5.	Jismoniy shaxslar	40 052,36	0,87
Jami		4 628 941,92	100

13-jadvaldan ko‘rish mumkinki, “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning aksiyadorlik kapitalidagi 99,13 foiz ulush yuridik shaxslarga tegishli bo‘lib, shundan 82,19 foizi O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi va 13,48 foizi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli davlat ulushi hisoblanadi. Dastlabki rejalarga ko‘ra mamlakatimiz hukumati tomonidan ushbu tijorat bankidagi aksiyalarning nazorat paketini 2024-yilda strategik investor(lar)ga sotishni reja qilingan edi, biroq ayrim sabablarga ko‘ra belgilangan muddat biroz kechiktirildi. Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Osiyo taraqqiyot banki kredit liniyalari orqali jalb qilingan mablag‘lar “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xususiylashtirilayotgan paytda bankning aksiyalariga konvertatsiya qilinadi. Bu esa o‘z o‘rnida ushbu xalqaro

³⁸ <https://sqb.uz/uz/for-investors/key-facts-uz/> ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

moliya institutlarga “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning aksiyadoriga aylanish imkonini taqdim etadi.

Xalqaro tajribalarni o‘rganish asosidagi xulosalarimizga ko‘ra, mahalliy QQBda yangi moliyaviy instrumentlar orqali investitsiyalar diversifikatsiyasini ta‘minlashda fond birjasi “Stock market” aksiyalar bozorining mavjud listing toifalariga kiritilgan emitentlarga muddati 1 yildan ko‘p bo‘lmagan birja obligatsiyalarini chiqarish imkoniyatini taqdim qilishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan ham amaliy taklif shakllantirildi. Mazkur taklifdan “Toshkent” Respublika fond birjasi Kuzatuv kengashining 2023-yil 12-maydagi 6-sonli Bayonnomasi bilan tasdiqlangan ““Toshkent” Respublika fond birjasi aksiyadorlik jamiyatida birja obligatsiyalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, joylashtirish va muomalaga kiritish Tartibi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan.



12-rasm. Oddiy va birja obligatsiyalari xususiyatlarining farqlanishi³⁹


